




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1958,6 mlrd. so'mni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1920,9 mlrd.so'mni (103,6 foiz), o'rmon xo'jaligida – 12,8 mlrd.so'mni (101,7 foiz), baliqchilik xo'jaligida – 24,9 mlrd.so'mni (123,8 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahrida (122,2 foiz), Mo'ynoq (121,2 foiz), Chimboy (109,8 foiz), Beruniy (108,4 foiz) tumanlarida kuzatildi va To'rtko'l (100,6 foiz) Shumanay (101,4 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.


**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulotlari (xizmat)ning hajmi**



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Amudaryo tumaninig ulushi 17,3 foizni tashkil etdi, Beruniy va To'rtko'l tumanlarida mos ravishda 12,7 foiz va 11,3 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Mo'ynoq tumanida (1,3 foiz), Nukus shahrida (0,5 foiz) qayd etildi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

2017 yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 2016 yilning mos davriga nisbatan o‘shishi 103,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,9 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 105,8 foizni tashkil qildi.


Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 61,0 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 36,7 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 2,3 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi



Dehqonchilik




2017 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1149,8 mlrd. so‘mni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,3 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig‘ib olish. Joriy yilning yanvar – dekabr oylarida 303,5 ming tonna (113,9 foiz) don ekinlari ishlab chiqarildi, 60,3 ming tonna (114,7 foiz) kartoshka kovlab olindi, 256,5 ming tonna (100,1 foiz) sabzavotlar, 132,5 ming tonna (103,9 foiz) oziqbop poliz, 48,0 ming tonna (110,0 foiz) mevalar va rezavorlar, 7,0 ming tonna (116,0 foiz) uzum yig‘ib olindi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi



2017 yilning yanvar-dekabrida xo‘jalik toifalari bwyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	Ming tonna	o‘ <i>sish</i> surati, foizda	Ming tonna	o‘ <i>sish</i> surati, foizda	Ming tonna	o‘ <i>sish</i> surati, foizda
Don	224,9	118,6	71,5	103,3	7,1	91,5
Kartoshka	13,6	101,1	46,2	120,3	0,4	65,6
Sabzavotlar	77,4	89,1	168,5	107,3	10,6	85,9
Poliz	61,6	101,2	68,3	105,8	2,6	126,9
Mevalar va rezavorlar	13,0	103,4	27,6	118,8	7,4	94,3
Uzum	0,9	150,7	5,8	113,0	0,3	101,2

Chorvachilik




2017 yilning yanvar- dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 727,3 mlrd. soʻmni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,7 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xoʻjaliklarda chorvachilik mahsulotlarining koʻpayishi goʻsht ishlab chiqarish hajmining – 6,7 foizga, sut – 5,0 foizga, tuxum – 9,3 foizga oʻsishi bilan izohlanadi.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 101,5 ming tonna goʻsht, 364,4 ming tonna sut, 257,9 mln. dona tuxum, 1,3 ming tonna jun, 83,0 ming dona qorakoʻl teri ishlab chiqarildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xoʻjalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 96,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,7 foizi, tuxumning 93,5 foizi, junning 86,0 foizi, qorako'l terining 94,0 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mah'sulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	101,5	106,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,6	132,2
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	98,1	106,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	75,0
Sut, ming tn.	364,4	105,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	15,5	107,1
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	345,2	105,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,7	88,3
Tuxum, mln. dona	257,9	109,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	12,9	103,7
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	241,0	110,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,0	72,3

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1056,0 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 302,7 ming boshga, qo'y va echkilar – 1038,9 ming boshga, parrandalar – 3866,7 ming boshga etdi.

2016 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 47 ming boshga (17,7 foizga), shu jumladan sigirlar – 9 ming boshga (3,1 foizga), qo'y va echkilar – 99,2 ming boshga (10,6 foizga), parrandalar – 581,4 ming boshga (17,7 foizga) ko'paydi.

2018 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 95,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 90,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 12,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 85,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 yanvar h'olatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1056,0	104,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	44,6	140,9
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1003,7	104,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,7	50,2
ulardan sigirlar	302,7	103,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	14,4	129,1
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	285,9	102,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,4	57,1
Qo'y va echkilar	1038,9	110,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	73,5	226,6
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	936,4	112,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,0	37,9
Otlar	21,8	106,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,8	178,7
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	18,6	104,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,4	38,4
Parrandalar	3866,7	117,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	228,0	144,2
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	3496,7	115,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	142,1	159,4

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi
Qishloq xo'jaligi va ekologiya bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
(61) 222-76-07

N. Madreymov